UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINI TASHKIL ETISHDA KREDIT TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI VA PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Sattorova G. F.,Rasuljonova B.A.,
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya yo‘nalishi talabalari
e-mail: g27999151@gmail.com
e-mail: rasuljonovaoisha778@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda hozirgi kunda ko‘plab universitet va institutlar uchun joriy qilingan kredit texnologiyasining samaradorlik darajasi va uning psixologik imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: texnologiya, ta’lim, kredit, o‘quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi, Bolonya deklaratsiyasi, talabaning mehnat sarfi, kreditlar miqdori, transferancy, agreement, psixologik imkoniyat.

Аннотация: в данном тезисах рассматривается уровень эффективности внедренной в настоящее время для многих вузов и институтов кредитной технологии и ее психологические возможности.

Ключевые слова: технология, образование, кредит, кредитная технология организации процесса обучения, болонская декларация, затраты труда студента, сумма кредитов, передача, совокупность, психологическая возможность.

Annotation: this article will talk about the level of effectiveness of credit technology, which is currently introduced for many universities and institutes, and its psychological capabilities.

Keywords: technology, education, credit, credit technology of Organization of the process of ouv quv, Bologna declaration, student labor consumption, amount of loans, transferancy, agreement, psychological capacity.

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik inqilobi tufayli, ilmiy texnik taraqqiyot o‘zining yuksak cho‘qqilariga erishdi. Ilmiy texnik taraqqiyotining (ITT) hozirgi darajasi shundayki, fan, texnika va texnologiya rivojining erishilgan sur’atlarini, mamlakat qay darajada rivojlangan bo‘lmasin alohida olingan mamlakatda uni ta’minlab bo‘lmaydi. ITTning keyingi rivoji, faqat turli mamlakatlardagi olim va mutaxassislarning hamkorligi, ilmiytadqiqot ishlarning integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin.

Fan, texnika va texnologiyaning tarqqiyoti ta’lim taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ta’lim sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi. O‘quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi haqida nazariy bilimlar berish ta’lim sohasidagi integrasion jarayonlar ilk bor Yevropada boshlangan edi. 1989 yilda Yevropaning minglab talabalari, Yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community

Action Scheme for mobility of University students), Tempus va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Erasmus dasturi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati universitetlari o‘rtasidagi talabalar almashinuvi sxemasi, dastavval 145 oliy o‘quv yurtlarini qamrab olgan edi. Erasmus dasturining yutuqlaridan biri, bu Yevropa universitetlaridagi o‘qitish natijalarini o‘zaro tan olish tizimi – European Credit Transfer System (ESTC) ni yaratish, sinash va amaliyotga keng qo‘llash deb aytish lozim. 2001 yilda, o‘quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi ECTS, Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo‘llanilgan edi. 2001 yilda, 29 ta Yevropa davlatlari ta’lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi, Yevropa ta’lim hududini yaratilishida, muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bolonya deklaratsiyasiga ko‘ra, diplomlarning o‘zaro tan olinishi ya’ni o‘qitish natijalarini yakuniy ko‘rsatkichlarning o‘zaro tan olinish muddati – 2010 yil deb belgilangan edi.

Bolonya deklaratsiyasiga kirish uchun quyidagi dastlabki talablar qo‘yiladi:

– Oliy o‘quv yurtigacha, 12 yillik ta’lim;

– Ikki bosqichli oliy ta’lim-bakalavriat va magistratura;

– O‘quv jarayoni va o‘qitish natijalarini baholash, ESTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi.

ECTS – bu yagona Yevropa ta’lim hududini yaratishning ibtidosidir. **Kredit-modul tizimi**, bu – ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqilishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. [1]

O‘quv jarayonini tashkil etishning ECTS kredit texnologiyasiga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

– Xorijda o‘qishni davom ettirish uchun oliy o‘quv yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish;

– O‘zbekistonda ta’lim olgan muddatini xorijiy davlatlarda tan olinishini ta’minlash;

– Yevropa oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejalarini o‘rganish va shu asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish;

– Talabalar qobiliyatini to‘laroq ochilishiga va o‘qitishning yuqori natijalariga erishish;

– Diplomlarni o‘zaro tan olinishiga erishish.

ECTS kreditlari barcha o‘quv fanlariga, ya’ni majburiy va talaba tanlovi asosida fanlarga taqsimlanadi.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;

bitta fan, kurs (kredit)ningqiymatini aniqlash;

talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;

talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;

ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;

ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi [1].

ECTS quyidagi aosiy tamoyillarga tayandi:

Transferancy – bu ECTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to‘siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targ‘iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi.

Agreement – talaba bilan ikkala oliy ta’lim muassasasining ECTS koordinatolari orasida tayyorlash mazmuni, o‘qish tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o‘quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o‘zaro kelishuvlarini anglatadi.

ECTS tamoyillari - shaxsning o‘z qobiliyatini to‘la rivojlanishi va ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyligini ko‘zda tutadi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyasi, oliy ta’lim muassasasining jihozlanganligi, professor-o‘qituvchilar tarkibi faqat ilmiy darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo‘lishi, o‘qitishning yuqori sifati - ECTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O‘quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish va ta’lim oluvchilarga ko‘proq erkinlik berish maqsadida kredit tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [3.191].

Kredit tizimining asosiy maqsadlari: • Ta’lim sifatini oshirish.• Talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.• Ta’limda moslashuvchanlik va tanlash imkoniyatini yaratish.• O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlariga integratsiya qilish.• Talabalarning mobilligini oshirish (turli universitetlarda o‘qish va kreditlarni o‘tkazish imkoniyati).

O‘zbekistonda kredit tizimining joriy etilish bosqichlari:Kredit tizimi O‘zbekistonda bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Dastlab, bir nechta universitetlarda tajriba sifatida sinovdan o‘tkazildi, keyin esa boshqa oliy ta’lim muassasalariga ham kengaytirildi.

Uzluksiz ta’lim tizimini tashkil etishda kredit texnologiyasining psixologik imkoniyatlari:1. O‘ziga ishonchni oshirish: Muvaffaqiyatli o‘zlashtirilgan har bir o‘quv kursi talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Talaba o‘zining qobiliyatlariga ishonch hosil qiladi va yangi vazifalarni bajarishga tayyor bo‘ladi.

2. Mas’uliyatni shakllantirish: Kredit texnologiyasi talabalarga o‘z ta’limlari uchun mas’uliyatni his qilish imkoniyatini beradi. Talabalar o‘zlarining o‘quv dasturlarini tuzishlari, o‘zlashtirish sur’atlarini belgilashlari va o‘qish natijalari uchun javobgar bo‘lishlari kerak.3. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish: O‘quv kurslarini tanlash erkinligi talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar o‘zlarining ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, o‘zlari uchun eng mos bo‘lgan kurslarni tanlashlari kerak.

4. Ijodiy qobiliyatlarni rag‘batlantirish: Kredit texnologiyasi talabalarga turli sohalarda bilim olish va o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish

imkoniyatini beradi. Talabalar turli fanlar bo‘yicha kurslarni tanlash orqali o‘zlarining bilim doiralarini kengaytiradilar va yangi g‘oyalar yaratishga qodir bo‘ladilar.

5. Adaptatsiya qobiliyatini oshirish: O‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati zamonaviy dunyoda muhim ahamiyatga ega. Kredit texnologiyasi talabalarga turli ta’lim muassasalarida o‘qish, turli o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish va yangi ko‘nikmalarni egallash orqali adaptatsiya qobiliyatini oshirish imkoniyatini beradi.

Kredit-modul tizimi afzalliklari shundaki, kredit modul tizimning respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalariga joriy etilishi o‘qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanmoqda. Modulli ta’limda pedagog tinglovchining o‘zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo‘naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg‘u ham talabalarning mustaqil ta’lim olishiga qaratilgan.

O‘qitishning kredit tizimining asosiy afzalliklari:

Akademik mobillik – talabaning ta’lim jarayoni davrida chet el o‘quv yurtlarida yoki o‘zga ta’lim yurtida ta’lim olib so‘ngra o‘qishni davom ettira olishi;

Ta’lim sifatini yuqori darajadaligi – o‘quv jarayonida chet el o‘quv yurtlari va tashqi muassasalardan o‘z sohasini mukammal o‘zlashtirgan mutaxassislarni jalb etilishi;

Ta’lim jarayonini jadalligini ta’minlash maqsadida chet el oliy ta’lim muassasalari amaliyotidan kelib chiqqan holda, o‘quv dasturlarini ishlab chiqilganligi;

Talabalar istagidan kelib chiqqan holda, fan tanlash imkoniyatiga egaligi va hakazolar.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi orqali oliy ta’lim muassasalari talabalari har doim professor-o‘qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kredit-modul o‘qitish tizimida o‘tish oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari o‘z ustida ko‘proq ishlashiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida talabaga bilim berish sifatining oshishiga olib kelmoqda. Kredit tizimida oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida talabalar almashinuvi amalga oshirilib kelinmoqda.

Bundan shunday xulosa kelish mumkin:

Uzluksiz ta’lim tizimini tashkil etishda kredit texnologiyasi samarali vosita bo‘lib, u talabalarga moslashuvchanlik, tanlash erkinligi, motivatsiya, mobillik va umr bo‘yi ta’lim olish imkoniyatini beradi. Kredit texnologiyasi talabalarning o‘ziga ishonchini oshiradi, mas’uliyatni shakllantiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, ijodiy qobiliyatlarni rag‘batlantiradi va adaptatsiya qobiliyatini oshiradi. Shu sababli, kredit texnologiyasini uzluksiz ta’lim tizimiga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga va jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sherzod Mustafoqulov, Mansur Sultonov. “Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik“. Xalq so‘zi (05 avgust 2020). 2023-yil 18-mayda asl nusxadan arxivlangan.

2.Avliyakulov N.X. O`qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, - Buxoro, 2000 11.

3. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik.-T.: Tafakkur bo‘stoni, 2012.-208 b.

4.Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.

5. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.